

K. STAMISNING D-DUR KONSERTINI YUQORI SINF O'QUVCHILARIGA O'RGATISH USLUBLARI

*R. Glier nomli R.I.M.M kamonli torli (skripka, alt) bosh
o'qituvchisi*

Djonikulova Nargiza Miradxanovna

Annotatsiya: *Yirik asarlarni yuqori sinf o'quvchilariga o'rgatish va yillar davomida sinalgan redaksiyadan to'g'ro foydalanish. Kompozitor yozgan asarlarni aniq tahlil qilish.*

Kalit so'zi: *Ijrochilik maktabi, Kadensiya, refren, allegro-sonata, rondo, ekspositsiya, redaksiya,*

Аннотация: *обучение крупных произведений старшеклассников и правильное использование проверенной годами редакции. Точный анализ произведений, написанных композитором.*

Ключевое слово: *Исполнительская школа, Каденция, рефрен, аллегро-соната, рондо, экспозиция, редакция,*

Annotation: *Teaching extensive works to high school students and effectively utilizing editions that have been refined over the years. Conducting a thorough analysis of the composer's works.*

Keywords: *Performing school, cadenza, refrain, allegro-sonata, rondo, exposition, edition,*

K. Stamisning D-dur konserti 1771-yil yozilgan. Yevropa bo'ylab bergen gastrol konsertlarida o'zi ijro etgan. 1-qism «allegro» - sonata formasi kengaytirilgan 2ta ekspositsiyani o'z ichiga oladi. Ekspositsiya hajm jihatdan razrabitgada keng yoritilgan. Asosiy partiya tantanavor harakterida yozilgan, sinkopalar bilan ta'kidlangan. Dinamik rivojlanish kuzatiladi, avval **p**, keying fraza **mf**, undan keyingi fraza **f** bilan ijro etilib gruppetto va trel bilan boyitilgan. 2tali notalar konsertni chuqurroq his-tuyg`ularga boy qiladi. Keyin kvartol, oktavali sakrashlar qo'shiladi. Asosiy mavzu avval orkestrda ijro etiladi, salist asosiy soloni ijro etganda orkestr akkomponiment ya`ni jo'r bo`lib ijro etadi. Texnika va kuy rivojlanadi va yana sekinlashadi. Bir necha bor bunday to'lqin goh alt partiyasida, goh orkestrda yangraydi. 2tali notalar, kvartol, triol, arpedjio bilan boyitiladi. Dinamik belgilarga boy. Bastakor orkestrning turli tembrlaridan foydalangan. Mavzu orkestrning turli ovozlarida o'tadi. O'quvchi asosiy partiyani ijro etganda tantanavor, ulug`vor **p**, dan **f** kreshendo qilib ijro etishi kerak.



Pobochnaya (yondosh) partiya-mayin yumshoq harakterda yozilgan. Mavzu orkestrning turli ovozlarida ijro etilgan. Asosiy va yondosh partiyani "erkak" va "ayol" obraziga qiyoslash mumkin. Razrabotka qismida 2ta solo va orkestr ijrosida tortushuvlar, dialog va motivlar asosida o'tadi. Reprizada D-dur hamma ovozda tasdiqlanadi. Endi ritmik ko'rinish (risunok) o'zgaradi-forshlag, trel qo'shiladi. D-dur konserti I-qismiga K. Stamisning o'zi ham 1771-yil Frans Beyer ham 2 variantli kodensiya yozishgan. Kodensiya-musiqiy asar yoki uning 1-qismini yakunlovchi, instrumental konsertdagi virtuozi yakuniy epizodaga aytildi.

Solist 1-qism ekspozitsiyasi mavzularini kadensiyada qayta ko'rib chiqishi qo'shimcha tematik repriz vazifasini bajaradi. Bugungi kunda muharrirlar o'sha davrdagi virtuozi konsert tehnikasi va zamonaviy ijro usliblaridan foydalangan holda klassik konsertlar uchun o'zlarining kadensiyalirini yaratadilar. O'qituvchi o'quvchi bilan internetdan bir necha hil kadensiya variyantlarini olib ijro qilib ko'radi va o'quvchinig imkoniyatidan kelib chiqib unga mosini tafsiya etadi. Kadensiya solo ijro etiladi, texnik mahorat ko'rsatiladi.

II-qism "andante moderato" bu qism d-mollda yozilgan, juda lirik g`amgin harakterda yozilgan. Solo va orkestrda qarama-qarshiliklar oshadi va 1-g`amgin mavzu, bora-bora 2-yorug` mavzu bilan almashadi.

The musical score shows a transition from a tutti section to a solo section. The key signature changes from B-flat major to B major. The tempo is marked as 'Andante moderato.' The dynamic is 'p' (pianissimo) for the tutti section, followed by 'mf' (mezzo-forte) for the solo section. The time signature is 3/8 throughout. The solo section features a melodic line with grace notes and slurs.

Mavzu solo-altda **p** bilan g`amgin boshlanadi, o`quvchi temani kamonni yuqori qismida past ovoz bilan boshlashi kerak. Mavzu forshlag, melizm va gruppettolar bilan bezatilgan . Kadensiya tehnik jihatdan murakkab.

The musical score continues with melodic lines. The first line starts with a forte dynamic (f) and then transitions to 'molto string. et cresc.' The second line begins with 'mf lento' and then transitions to 'p III' and 'string. et cresc.'. The music consists of two staves in B-flat major.

O`quvchi 2tali notalar,akkordlar, passajlarni mahorat bilan ijro etishi lozim, chunki kadensiya solo ijro etiladi mahorat talab qiladi.

III-qism "rondo allegretto" bu qism rondo formasida yozilgan. Asosiy mavzu-refren deb ataladi, raqs harakterida yozilgan va tema 3ta qarama-qarshi epizodlar bilan almashadi.

The musical score shows a rondo section. The key signature changes to B major. The tempo is marked as 'Rondo.' The dynamic is 'pdolce' (pianississimo dolce). The music consists of three staves in B major.

R-E1-R-E2-R-3-R sxemasida yoziladi. Epizodlar eng kami 2ta bo`lishi kerak, kompozitor hohishiga qarab ko`proq ham bo`lishi mumkin. Mavzu refren past ovozda raqs harakterida ijro etish kerak kamonni yuqori qismida, keyingi qaytarishda **f** ijro etish kerak qism boshidayoq shunday qarama-qarshi dinamik ishlatilgan. 1-epizod ohangi kuychang, melizmga va raqsga boy qilib yozilgan. Tempi tez, 16talik notalar arpedjioda yozilgan, "nafas olish", "nafas chiqarish", y`ani melodiya goh rivojlanadi, goh pasayadi. Bu 1-epizod bo`ladi. 1-epizoddan keyin refren-mavzu yana qaytariladi raqs harakterida.

Endi 2- epizod re minorda yozilgan, lirik-dramatik ruh solistda va orkestrda o`tadi. Trel, forshlag, melizmlarga boy o`quvchi ijroda bu melizmlarnianiq ijro etishi kerak.



Motiv 2talik notalar, mavzuni 1 oktava yuqorida ijro etiladi. Bu qismni ijrosida poco-meno mosso-temp biroz jo`ziladi (d) (e)ga kelganda yana avvalgi tempga qaytamiz va 2talik notalar (tersiyani) toza ijro etish ustida ishlanadi o`quvchi bilan. Yana refranga qaytib, refaren qaytqriladi. Endi 3-epizod major-D-durda ijro etiladi.



Bu epizodni o`quvchi tez tempda ijro etishi kerak, chunki kvartol o`rniga sekstol ijro etiladi. Bu qism turli redaksiyada turlicha ijro etiladi. Biz o`rganib ijro etiladigan notada “detashe” shtrixda, ba`zi internetdan olingan notalar “spikkato” shtrixida yozilgan. Xar bir o`qituvchi o`zi o`rgangan redaksiya bilan ishlaydi. Men bu konsertni ijro qilganimda Moskva Konservatoriyasida o`qib, Toshkentga kelib ishlagan o`qituvchim Smishlyeva Irina Leonidovna bergen edi. Ijro etgan konsertim Moskva redaksiyasi edi. O`zim qanday redaksiyada ijro etgan bo`lsam o`quvchilarimga huddi shunday redaksiyada tafsiya etaman. Applikatura ham shunday. O`zim ijro etgan barmoqlarni o`quvchilarimga chaldiraman. Chunkiy bu barmoqlarda ijro etish yillar davomida sinalgan. K. Stamisning D-dur konserti o`z jozibasini hali yo`qotgani yo`q, uni altchilar ko`p tanlovlarda, bitiruv imtixonlarida ijro etishadi. Konsert jarayoniga o`qituvchi qanchalik ko`p mehnat qilsa, o`quvchining sahnaga chiqishi uning individual hislatlaridan kelib chiqadi. Sahnada u tamoshabin bilan birga-bir qolganda auditoriya unga qanday ta`sir qiladi, oldindan aytish qiyin, chunki har bir inson bu holatda o`zini turlicha tutadi. Konsert oldi haya Jonni yengish, uni oldini olish bilan psiholog olimlar qiziqib kelishgan. Bu o`rinda K. Stanislavskiy o`z kuzatuvlari asosida shunday hulosa beradi: “qachonki artist sahnaga tomoshabin qarshisiga chiqar ekan, u qo`rqanidan uyalganidan mas`ulyatdan

o`z nazoratini yo`qotadi. Bu daqiqalarda u inson kabi gapishtiga, fikirlashga, istakga, his qilishga ojiz bo`lib qoladi”.

Ayrim ijrochiga hayajon asarni yorqin va serqirra chalishga yordam bersa, boshqasiga hotira pand berib sahnada to`xtabqoladi. Tajribali o`qituvchi o`quvchini kichkina sinfdan sahnaga tayyorlaydi. Eng muhimi, o`quvchiga birinchi sahnaga chiqishi omadli bo`lishi kerak. Shuning uchun musiqa maktablarda har chorakda imtihonlar o`tkaziladi. Bo`limda ichki tanlovlari, konsertlar bo`ladi, bular hammasi o`quvchilarni sahnada ko`proq ijro etib, ichki hayajonni yengishga yordam beradi.